



**MÁMLEKETLIK AKTIVLERDI BASQARÍW AGENTLIGININ'  
QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍ AYMAQLÍQ BASQARMASÍNIN'**

**B U Y R I G' I**

**2023-jil. 05-sentyabr**

**№150**

**No'kis qalasi**

**O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining  
2023-yil 18-avgust kungi 224-sonli bo'yrug'i ijrosini ta'minlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat ishtirokidagi korxonalarining boshqaruv organlarida davlat vakillarining samarali ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2023-yil 14-avgust kungi 373-sonli qarori va Agentlikning 2023-yil 18-avgust kungi 224-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida,

**BUYURAMAN:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-avgust kungi 373-sonli qarori va Agentlikning 2023-yil 18-avgust kungi 224-sonli buyrug'i ijro va ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

a) qaror bilan:

Davlat ishtirokidagi korxonalaridagi davlat vakillarining faoliyatini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi Nizom tasdiqlanganligi;

davlat ishtirokidagi korxonalarda davlat nomidan aksiyador (ishtirokchi) funksiyalarini amalga oshiruvchi vazirlik va idoralar mahalliy davlat hokimiyati organlari korxonalarining boshqaruv organlarining yig'ilishlarida davlat vakillarining ishtirokini ta'minlashda hamda kun tartibiga kiritilgan masalalar bo'yicha qaror qabul qilishda mazkur qaror talablariga qat'iy rioya qilinishini ta'minlash;

ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran uch oydan keyin ko'chga kirishi belgilanganligi;

b) Qaror bilan tasdiqlangan Davlat ishtirokidagi korxonalaridagi davlat vakillarining faoliyatini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi Nizomga ko'ra;

Davlat vakili davlat ishtirokidagi korxonalar aksiyadorlar (ishtirokchilar) umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilgan:

korxonani qayta tashkil etish yoki tugatish;

shu'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarini tashkil etish;

tashkiliy tuzilmalarni tasdiqlash;

- korxonalar ijroiya organini, saylash, tayinlash, yollash, uning vakolatlarini muddatidan oldin bekor qilish;
  - e'lon qilingan aksiyalarning eng yuqori miqdorini belgilash;
  - aksiyalarni bo'lish va konsolidatsiyalash;
  - korxonalarining ustav fondi (ustav kapitali) miqdorini ko'paytirish yoki kamaytirish;
  - mulkni garovga berish;
  - yirik bitim tuzish yoki korxonalarining afillangan shaxslari bilan bitimlar tuzish;
  - sof foydani taqsimlash va uning bir qismini dividendga yo'naltirish masalalarini oldindan tegishlilik bo'yicha vakolatli organ bilan kelishib olishi;
  - qayd etilgan kelishiladigan masalalardan tashqari qolgan masalalar bo'yicha davlat vakili qonunchilikka va davlat mulkini ishonchli boshqarish shartnomasiga muvofiq mustaqil ravishda qarorlar qabul qilishi;
  - davlat ulushi ishonchli boshqaruvga berilmagan davlat ishtirokidagi korxonalarda kuzatuv kengashi mavjud bo'lmagan hollarda, kuzatuv kengashi tashkil etilgunga qadar aksiyadorlar (ishtirokchilar) umumiy yig'ilishi kun tartibidagi kelishiladigan masalalar yuzasidan ovoz berish tartibi to'g'risidagi ko'rsatma davlat vakiliga ishonchnoma bilan bir paytda berilishi lozimligi;
  - kelishiladigan masalalar bo'yicha xabarnoma davlat ulushini ishonchli boshqarishni amalga oshiradigan investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchi yoki kuzatuv kengashining davlat ulushi bo'yicha saylangan a'zolari tomonidan imzolanishi lozimligi, bunda davlat ulushi bo'yicha saylangan mustaqil a'zolar mustasnoligi;
  - vakolatli organ davlat vakilidan kelib tushadigan xabarnomalar hamda ovoz berish tartibi bo'yicha ularga berilgan ko'rsatmalarning hisobini olib borishi;
  - davlat vakili tomonidan beriladigan xabarnoma, shuningdek vakolatli organ tomonidan beriladigan ko'rsatma shakli va ularni taqdim etish muddatlari belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.
3. Davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ munosabatlarni ta'minlash sho'basini (Qaljanov):
- Davlat vakillari tomonidan mazkur qaror talablariga rioya etilishi ustidan doimiy nazorat o'rnatish, jumladan davlat ishtirokidagi korxonalarining aksiyadorlar (ishtirokchilar) umumiy yig'ilishlarida qabul qilingan qarorlarni tahlil qilgan holda kelishiladigan masalalar bo'yicha ko'rsatma olinganligi holatlarini o'rganib borish va mazkur qaror talablarini buzgan davlat vakillarining vakolatlarini muddatidan oldin tugatishgacha bo'lgan choralar ko'rish yuzasidan Agentlikga takliflar kiritib borsin.
4. Murojaatlar bilan ishlash bo'yicha bosh mutaxassis v.v.b (G.Urazbayeva) mazkur buyruq nusxalarini boshqarmaning Davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ munosabatlarni ta'minlash sho'basiga yetkazilishini ta'minlasin.
5. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish Boshqarma boshlig'ining o'rinbosari A.Mnajov zimmasiga yuklansin.

**Boshqarma boshlig'i**



**M.Radjapov**